



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel oylarida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona
va tashkilotlar ulushi
65,0 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi
3 330,4 ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi
6 319,8 mld so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi
65,6 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'ati
102,6 %**

**Ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'ati
104,7 %**



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi - bu, korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 319,8 mlrd so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,7 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6 319,8	104,7
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	325,4	124,9
Moliyaviy xizmatlar	1382,9	103,4
Transport xizmatlari	1220,7	101,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1185,0	102,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	120,1	101,1
Savdo xizmatlari	1929,9	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	157,5	99,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	273,4	120,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	101,9	104,8
Ijara xizmatlari	139,9	99,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	140,7	101,3
Shaxsiy xizmatlar	312,4	100,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	44,1	95,7
Boshqa xizmatlar	170,7	110,3



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ulush

Nisbatan past ulush



Ko'chmas mulk bilan
bog'liq xizmatlar



Kompyuterlarni
ta'mirlash xizmati



Ijara xizmatlari



Yashash va ovqatlanish
xizmatlari



Sog'lijni saqlash
sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi
xizmatlari

Savdo xizmatlari

Moliyaviy xizmatlar

Transport xizmatlari

Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari

Shaxsiy xizmatlar

Ta'lim sohasidagi
xizmatlar

Boshqa xizmatlar



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **30,5 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda 30,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lган - 0,8 %.

2023- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish boshqa xizmatlar (**110,3 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**120,4 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**124,9 %**), moliyaviy xizmatlar (**104,8 %**) qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (124,6 %), Ta'lim sohasidagi xizmatlar (123,6 %), Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (113,8 %).




ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo – bu, tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **30,5 %** ni tashkil etdi, bu esa **1 929,9 mlrd so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **1 649,4 mlrd so'mga** yoki umumiylajmi **30,4 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022- yil yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi
1 649,4 mlrd so'm

O'sish sur'ati
110,0 %

Ulushi
30,4 %



2023- yil yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi
1 929,4 mlrd so'm

O'sish sur'ati
104,0 %

Ulushi
30,5 %



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **82,6 %** ini tashkil etdi.

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

Savdo xizmatlari tarkibi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobi bo'yicha olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-aprel oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 382,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi 1 201,6 mlrd so'mga teng bo'lgan.

Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **21,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **22,2 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **181,4** mlrd so'mga o'sgan

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 103,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022 - yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati 83,6 % ga yetgan.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **86,8 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)





ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

2022- yil yanvar-aprel

2023- yil yanvar-aprel

254,8
mlrd so'm

124,6 %

4,7 %

325,4
mlrd so'm

124,9 %

5,1 %



12

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **97,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

**236,8
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**273,4
mlrd so'm**

**2022- y.
yanvar-
aprel**



**2023- yil
yanvar-
aprel**

123,6 %

O'sish sur'atlari, % da

120,4 %

2023- yil yanvar-aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **273,4** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,3 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **236,8** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2021- yilga nisbatan o'sish darajasi **123,6 %** da qayd etilgan.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd so'm



95,5

2022- yil
yanvar-mart



120,1

2023- yil
yanvar-mart



O'sish
sur'ati, % da



111,6



101,1

2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **24,6** mlrd so'mga ortdi.



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

91,0 %

2023- yil yanvar-aprel

9,0 %**7,8 %**

2022- yil yanvar-aprel

92,2 % Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar Yashash bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,0 %** bilan ustunlik qildi.

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi
 – bu, sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2022- yil
yanvar-aprel**

**88,1
mlrd so'm**

106,2 %

1,6 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2023- yil
yanvar-aprel**

**Xizmatlar
hajmi**

**101,9
mlrd so'm**

104,8 %

**O'sish
sur'ati**

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**



2023- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da

(2023- yil yanvar-aprel oylarida)



2023- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **38,1 %** (2022- yilda **37,6 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug'nor tumanida **1,5 %** (2021- yilda **1,5 %**) qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2023- yil yanvar-aprel)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Andijon viloyati	6319,8	104,7	103,1
<i>Shaharlari:</i>			
Andijon sh	2 408,6	106,3	102,2
Xonobod sh	137,1	103,4	101,9
<i>Tumanlari:</i>			
Oltinko'l	262,8	105,0	104,2
Andijon	380,3	103,9	103,6
Baliqchi	334,4	104,0	102,4
Bo'ston	111,4	103,7	103,1
Buloqboshi	202,7	104,3	104,4
Jalaquduq	273,1	105,2	103,7
Izboskan	298,0	102,8	103,5
Ulug'or	96,5	105,1	101,5
Qo'rg'ontep'a	306,1	103,9	105,3
Asaka	410,3	102,1	104,0
Marhamat	243,6	102,7	103,4
Shahrixon	329,6	103,8	104,7
Paxtaobod	241,9	104,5	103,1
Xo'jaobod	283,4	104,2	103,3

* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**3 330,4
ming so'm**

**69,5 ming
so'mga**



102,6 %

O'sish sur'ati

2023- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga **3 330,4** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash

uchun:

2022- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 260,9** ming so'mni tashkil etgan.

20

Andijon viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**21 363
birlik**

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

81,8 %

2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

**-4 751
birlikga**

65,0 %

Ularning umumiyl sonidagi ulushi



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **65,0 %**, sanoat **20,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **7,4 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **7,2 %** ga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **58,8 %**, sanoat **24,0 %**, qurilish **8,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **8,6 %** ni tashkil etgan..


2023- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi. Ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2023- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,6** % ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

1- may holatiga

2023- y.

2022- y.

76,0 %

79,4 %

2023- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **76,0** % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 74 228-30-83